

QO'SHTEPA TUMANI HOKIMI ISHTIROKIDA YOSHLAR BILAN OCHIQ MULOQOT O'TKAZILDI



Qayrag'och mahalla fuqarolar yig'inida "Tuman mahallalarida faoliyat olib borayotgan yoshlар yetakchilari tomonidan hududlarda yoshlarga oid dasturlar bilan ishlash, yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish choralarining samaradorligi" mavzusida ochiq muloqot o'tkazildi.

Qo'shtepa tumani hokimi I.Novikov ishtirok etgan ochiq muloqotda tuman hokimining o'rinnbosarlari, tegishli idoralarning rahbarlari hamda shu hududda yashayotgan yoshlар qatnashdilar.

Tadbirda avvalo Qayrag'och mahallasi yoshlар yetakchisi J.Mo'minov tomonidan hududda yoshlarga oid dasturlar bilan ishlash, yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish choralarining samaradorligi yuzasidan tashkil etilayotgan ishlar bilan tanishildi. Shuningdek, tuman rahbari mahalladagi yoshlarning muammolarini yaqindan o'rganish maqsadida ular bilan suhbatlashdi.

Yoshlар muammolarini hal qilish, bandligini ta'minlash, bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha o'tkazilgan ochiq muloqotda 9 nafar yoshlар o'zlarini qiynab kelayotgan muammolar yuzasidan tuman hokimiga murojaat qilishdi.



Yoshlар tomonidan asosan doimiy ish bilan ta'minlash va boshqa masalalar yuzasidan 9 ta murojaat bildirildi. 6 ta murojaat shu joyning o'zida o'zining ijobiy yechimini topdi. Qolgan murojaatlar yuzasidan mutasaddilar tomonidan tegishli tushuntirishlar berilib, bildirilgan murojaatlarni o'rganib chiqish va ijobiy hal qilish yuzasidan vazifalar belgilab olindi.

[**Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating**](#)

[Facebook](#),

2022-09-14 17:00:02